

## “TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI” FANI MISOLIDA TALABALARDA IJODIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH

**Raxmatullayeva Havasxon**

*Qo‘qon Universiteti “Ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fani misolida talabalar ijodiy faolligini shakllantirish masalasi yoritilgan. Ijodiy faollik tushunchasi, uning ahamiyati va talabalarda bu fazilatni rivojlantirishning samarali metod va texnologiyalari tahlil qilinadi. Texnologiya fanining ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari, talabalarni kasbiy tayyorlashdagi o‘rni, interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, STEAM yondashuvi va AKT vositalari orqali ijodkorlikni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Yakunda, talabalarda ijodiy fikrlash va yangilikka intilish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat ta’limi, ijodiy faollik, boshlang‘ich ta’lim, metodika, pedagogik texnologiya, loyiha, STEAM, talabalar faoliyati.

**Annotation.** This article explores the development of students' creative activity through the methodology of teaching labor education in primary school. The concept of creative activity, its importance, and effective methods and technologies for fostering this quality in students are analyzed. The educational and formative potential of the subject "labor education" is discussed, along with its role in the professional training of future teachers. Special attention is paid to project-based learning, the STEAM approach, ICT tools, and interactive teaching methods. The article concludes with practical recommendations for developing students' creative thinking and innovative skills.

**Keywords:** labor education, creative activity, primary education, methodology, pedagogical technologies, project, STEAM, student engagement.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Bu esa pedagogik faoliyatga yangicha qarash, innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llash zaruratini tug‘diradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan Texnologiya fani o‘quvchilarning ijodkorlik, estetik did, mehnatsevarlik va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur maqolada pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi orqali ijodiy faol shaxs sifatida shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida Texnologiya va uni

o'qitish metodikasi fanining imkoniyatlaridan foydalanish orqali ularning ijodiy salohiyatini ochish, yangicha fikrlashga yo'naltirish va innovatsion yondashuvlarni o'rgatish muhim vazifalardan biridir.

Mehnat ta'limi insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatda shaxsning har tomonlama shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu fan o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni mehnatga hurmat ruhida tarbiyalash va estetik didini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Texnologiya fani yordamida o'quvchilar tashqi dunyoni amaliy faoliyat orqali anglaydi, o'z fikrini moddiy buyum orqali ifodalashga o'rganib, har xil materiallar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Guruhda ishlash, fikr almashish, yordam ko'rsatish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi.

Bundan tashqari, Texnologiya darslari o'quvchilarda qiziqish va ijodiy yondashuvni shakllantirish, estetik tarbiyani yo'lga qo'yish, kasb tanlashga tayyorlash, ekologik tarbiya berish imkonini ham beradi.

Shunday ekan, bu fan orqali nafaqat amaliy mashg'ulotlar o'rgatiladi, balki shaxsiy fazilatlar, jamiyatga foydali bo'lish hissi ham shakllantiriladi.

Ijodiy faollik — bu shaxsning yangi g'oyalarni ilgari surishga, muammolarga yangicha yondashishga, mavjud bilimlar asosida yangi mahsulot yaratishga bo'lgan ichki intilishi va harakatidir. Talaba uchun ijodiy faollik uning nafaqat bilim darajasi, balki kasbiy shakllanishida ham asosiy rol o'ynaydi.

Ijodiy faol talaba mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qila olish, yangi yechimlarni taklif eta olish, ishni boshqacha usulda bajarishga harakat qilish, shaxsiy tashabbus ko'rsatish, qisqa vaqt ichida samarali qaror chiqarish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ijodiy faollikni shakllantirishning boshlang'ich bosqichida erkin fikr bildirishga imkon yaratish, har bir g'oyaga hurmat bilan yondashish, rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, amaliy faoliyatga keng o'rin berish, tajriba, sinov, tahlil, xulosa chiqarish jarayonlarini tashkil etish kabi shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Aynan texnologiya fanining metodikasi fani orqali talabalar o'qituvchilik faoliyatiga ijodiy yondashishni, har bir darsni noyob va samarali qilishni o'rganadilar. Bu ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi – bu boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limini samarali tashkil etish, mazmun va shakllarini tanlash, o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish usullarini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Ushbu fan pedagogika yo'nalishidagi talabalarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashda asosiy o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar, o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini shakllantirishga qaratilgan.

Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar va bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Bu texnologiyalar faqatgina bilim berishga emas, balki o'quvchi va talabaning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar – bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan o'quv jarayonidir. Texnologiya fanida quyidagi interaktiv usullar ijodiy faollikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi: “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Rol o'ynash”, “Klaster usuli”. Bu metodlar talabaning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, o'z fikrini asoslashga, ishonch bilan bayon qilishga va boshqalarning fikrini tinglab, tahlil qilishga undaydi.

Loyiha asosida o'qitish – talabalar tomonidan muayyan muammoli vaziyat asosida mustaqil tadqiqot o'tkazish, rejalashtirish, mahsulot yaratish va uni himoya qilish faoliyatidir. Talabalar bu orqali mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatni tahlil qilish, tashabbus ko'rsatish, ijodiy yondashuvni o'zlashtiradilar.

AKT vositalari yordamida talabalar grafik dasturlar, interaktiv taqdimotlar, YouTube, Canva, Pinterest kabi platformalardan foydalanib o'z g'oyalarini vizual tarzda ifodalaydi. Bu texnologik savodxonlikni oshiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

STEAM yondashuvi orqali esa talaba ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani uyg'unlashtirib ishlaydi. Bu yondashuv ularni tizimli fikrlash va ko'p yo'nalishli ijodiy faoliyatga jalb etadi.

Ijodiy faollikni shakllantirish – bu nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish orqali talabalarda yangilikka intilish, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuvlar yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish demakdir.

Muammoli ta'lim orqali talabalar o'zlari yechim topishga undaladi. Masalan: “O'quvchilar uchun ekologik toza materialdan foydalanilgan didaktik vosita loyihalash” vazifasi orqali ular ekologik va estetik jihatlarni hisobga olgan holda mahsulot yaratadilar.

Ijodiy topshiriqlar esa talabalarni o'z salohiyatini ko'rsatishga undaydi: qog'oz o'yinchoq dizayn qilish, milliy motivlarga ega ko'rgazmali material yaratish kabi vazifalar ularning tashabbuskorligini rivojlantiradi.

Haqiqiy darslarga integratsiyalashgan tajriba loyihalari talabalarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bevosita ishlashga olib keladi. Bu esa ularni pedagogik refleksiya va o'z ustida ishlashga o'rgatadi.

Seminarlar, treninglar, ko'rgazmalar, ustoz-shogird tizimi orqali ularning kasbiy va ijodiy o'sishi qo'llab-quvvatlanadi.

Masalan: “Qayta ishlanadigan materiallardan bolalar uchun didaktik o'yin” loyihasi doirasida talabalar plastik, mato, tugma va boshqa buyumlar yordamida o'z mahsulotlarini ishlab chiqib, ularni taqdim etadilar.

Boshlang'ich ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki estetik did, mehnatsevarlik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu fan orqali bolalarda kichik yoshdanoq ijodiy tafakkur, yangilikka qiziqish va o'z mehnatining natijasini qadrlash hissi vujudga keladi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha tayyorlanayotgan talabalar uchun bu jarayonning har bir bosqichi pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv va estetik qarashlar bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur.

Ijodiy faollikni shakllantirish: muammoli vaziyatlar, loyiha asosida ishlash, interaktiv metodlardan foydalanish, amaliy faoliyat orqali o'z g'oyalarini hayotga tadbiq etish orqali amalga oshiriladi. Talabalar o'z kasbiy faoliyatida yangilik kiritishga tayyor, ijtimoiy faol va intiluvchan shaxs sifatida shakllanadilar.

#### **Takliflar:**

Birinchidan, texnologiya fanining metodikasini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni tizimli qo'llash.

Ikkinchidan, talabalar uchun ijodiy laboratoriyalar va to'garaklar tashkil etish.

Uchinchidan, ijodiy ko'rgazmalar, tanlovlar va seminarlar o'tkazish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Inoyatova, D. (2024). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. University Research Base, 103-107.
2. Inoyatova, D. Q. (2024). Boshlang'ich ta'limda ta'lim texnologiyalarini qo'llash: tajriba va istiqbollar. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 12, 96-98.
3. Inoyatova, D. Q. (2024). Ta'limda innovatsion yondashuvlar. Inter education & global study, (8), 224-233.
4. Baxromovna, R. H. (2025). Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi boshlang'ich sinflarda o'qitish. Pedagogical sciences and teaching methods, 4(43), 409-424.
5. Guluzra, K., & Sevaraxon, M. (2024). Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini ijodiy faoliyatga o'rgatishda texnologiya ta'limining o'rni. University Research Base, 282-287.
6. Gulnoza, S. (2024). Maktabgacha ta'limda mehnat tarbiyasi: zamonaviy talablar va istiqbollar. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 215-219.
7. Sanginova, G. (2024). Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. University Research Base, 116-119.